

**PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJIY TILLARNI  
O'QITISHNING AHAMIYATI****Hamidova Sevara Zokirovna***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika fakulteti talabasi**Email:sevarhamidova3@gmail.com**[Tel:+998915183004](tel:+998915183004)***Mohinur Qayumova Murodullayevna***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili**fani o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)***Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Xorijiy tillarni o'qitishda tayyorgarlik ko'rish va uni tashkil etish yo'lari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, o'qitishning ahamiyati, dars, ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni, jarayon, faoliyat, innovatsiya.

**Kirish:** Boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinflarida o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish, yozish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi.

Hozirgi kunda davr talabi bo'lgan ingliz tilini yosh avlodga maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflardan o'rgatib borishning turli xil usullari va yo'llari haqida ko'plab metodlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tadbiiq etish masalalari ustida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bunday izlanishlar samarasi o'z natijasini ko'rsatishi tayin. Yosh avlodga ularning bolalik chog'laridanoq chet tillaridan saboq berishning ko'plab afzalliklari mavjud. Ular bolalik chog'ridanoq tilga mehr qo'yishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishimiz eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki ular chet tilini o'rganishi mobaynida o'sha xalqning nafaqat tili, balki millati, qadriyatlar va aholisining yashash tarzi bilan ham tanishib boradi. O'z-o'zidan o'quvchi ongida dunyo haqida tushuncha va taassurotlar paydo bo'la

boshlaydi. Til bilish ko'plab keng imkoniyatlar yaratadi. Dunyo kezishga, biznesga, ilm olishga, dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta. Chet tillari maktab o'quvchilariga ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bosqichma – bosqich o'rgatilishi yo'lga qo'yilgan. Bu jarayonda 1-sinf o'quvchilariga o'zlariga mos tarzda, asosan, multimediali va og'zaki o'rgatish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

**Asosiy qism.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2013-2014- o'quv yilidan boshlab 1-sinflardan ingliz tilini o'yin tarzidagi mashg'ulotlari va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. 2- sinfdan esa grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Daraxt", "Dictionary", "Eng tezkor" va shu kabi ko'plab metodlardan foydalanish mumkin. "Daraxt" metodi haqida gapiradigan bo'lsak bo'lsam, bu metod, asosan, bolalarga o'yin tarzida olib boriladi. Katta oq qog'oz (plakat) ga chiroyli daraxt rasmi chiziladi. O'quvchilarga esa gullarga savollar yozib tarqatiladi yoki mevalarga savollar yozish ham mumkin. So'ngra o'quvchilar savollarga to'g'ri javob berishsa, o'sha gulni (mevani) daraxtga yopishtirishadi. Shu tariqa o'quvchilar o'zlarining "bilim daraxti" ni yasashadi. "Dictionary" – bu metodda esa asosan taqqoslash va solishtirish asosiy o'rinda turadi. Ya'ni, o'quvchilarni 2-guruhga bo'lib, 1-guruhga elektronniy lug'atdan, 2-guruhga esa kitob variantdagi lug'atlardan foydalangan holda so'zlarni, matnni kim birinchi tarjima qilish vazifasi beriladi. Bu usulda, albattaki, 1-guruh tezkorlik bilan shartni bajarishadi. Ammo, 2-guruhning xotirasida so'zlar ko'proq va uzoqroq vaqtga saqlanib qoladi. Chunki, ular har bir so'zni qiynalib va mehnat qilib qidirib topishadi. Yana shu tariqa guruhlar lug'atlarning bu ikki xil variant haqida ko'plab foydali va samarali usullarini tomonlarini aytib o'tishadi. "Eng tezkor" metodi haqida esa quyidagicha tushuntirib o'taman.

Bu metodda o'quvchilarga kichik qog'ozlardan futbolkachalar yasab tarqatiladi. O'quvchilar esa qog'ozga o'zlari bilgan so'zlarni yozib to'ldirishadi. Kim ko'p so'z yozsa va birinchi bo'lib to'ldirib bo'lsa, o'sha eng tezkor o'quvchi hisoblanadi. Shu va shu kabi ko'plab metod hamda o'yinlardan foydalangan holda bolalarning ingliz tilini yaxshi va mukammal o'rganishlarini ta'minlash mumkin. Bu metodlarning samarasi juda ham yaxshi foyda berishi aniq. xil multimediali ilovalardan foydalanishi uchun televizor olib berish va shu kabi sharoitlarni qilib berish zarur. Har bir qilingan harakat o'z samarasini berishi tayin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir nechta samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevori bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'quvchilarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm-fanini o'rganishga, buyuk

ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, “ Til bilgan –el biladi”.

Ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda: “Quvnoq topishmoqlar” (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. “Chigil yozdi” (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish. “Pantomima” (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. “Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. “Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. “Kviz kartochkalari” (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi. “So'z o'rnini top” o'yinida so'zlarning o'rnini almashtirib qo'yiladi hamda so'zlarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yish orqali gap hosil qilinadi. “To'plam” o'yini ma'lum bir mavzu asosida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi. Masalan, belgini bildirgan so'zlarni toping deb, guruhlarga topshiriq beriladi. Berilgan vaqt ichida qaysi guruh ko'p topa olsa g'olib bo'ladi. Multfilmlar. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi.

Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda. “Rasmlar” o'yini. O'quvchilar Present Continuous tarkibini yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun rasmlar o'yini qo'llash mumkin. O'quvchilarga hali ko'rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, P1: Is the girl sitting at the table? P 2: No, she is not. P1: Is the girl standing? P 2: Yes, she is Rasmda ifodalangan harakatni to'g'ri topgan o'quvchi g'olib xisoblanadi. U boshlovchi bo'lib boshqa rasmni oladi. “Rasmdagi gaplar” o'yini. Bu o'yin grammatik formalarni mashq qildirish uchun yaxshi ko'rgazmali vosita hisoblanadi. Kartalarda odamni qandaydir harakatlarini ifodalovchi bir necha rasmlar bor, masalan: konkida

uchayotgan, shaxmat o'ynayotgan, kitob o'qiyotgan rasmlar bor. O'qituvchi rasmlari kartalarni ko'rsatadi (bola konkida uchayapti) va so'raydi: What is he doing? O'quvchilar o'zlarida xuddi shunday rasmni topadilar va javob beradilar: Chet til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish/o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Kritik Davr Gipotezasi ona tili bo'ladimi, chet tili, chet tilda tabiiy nutqqa yaqin darajada egallanishi mumkin bo'lgan chegaralangan rivojlanish davri mavjudligini ta'kidlaydi .

... kichik yoshdagi bolalar yaxshiroq va osonroq o'rganishadi. ...uzoqroq o'rganish davri maktab ta'limi yakuniga qadar malakalarning yuqoriroq darajada egallanishiga olib keladi. Chet til, xususan, ingliz tilini kichik yoshdan o'rganish va o'rgatish ham o'z tarixiga ega. Kichik yoshdan ingliz tili o'rganish va o'rgatish dastlab yuqori tabaqa . 2013 - yil Moskva (Rossiya)da «Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti: an'analar va innovatsiyalar» mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish metodikasining dolzarb muammolari muhokama etildi. Yuqorida qayd etilgan seminar va konferensiyalarda boshlang'ich ingliz tili ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ilmiy manbalarda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish konsepsiyalari va bir necha o'nlab tamoyil (printsip)larni o'lg'a surilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining Ta'lim va madaniyat tadqiqotlar dasturi doirasida 2005-2006 yillarda bajarilgan EAS 89/04, Lot 1 «Good Practice and Main Principles» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezonida quyidagi tartibda umumlashtirilgan:

- 1) mazmunli kontekst va o'quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik);
- 2) ingliz tili o'rganishga ijobiy yondashish (pedagogik);
- 3) xolistik o'rganish (metodologik);
- 4) ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to'liq inobatga olish (psixolingvistik);

Manbalarni o'rganib chiqib boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'quvchilarning ingliz tilini o'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
3. Darslarda ma'noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
4. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish.
5. O'quvchilarning yoshiga mos autentik materiallardan foydalanish.
6. Nutq namunalari asosida ingliz tilini o'rgatish.
7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo'g'irchoqlar yordamida).

Ingliz tili o‘qitish metodikasining, (a) umumiy (nutqiy yo‘nalganlik, chegaralab va yaxlit o‘rgatish, mashqlar bajarish, til tajribasini hisobga olish), (b) xususiy (nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish, til mashqi va nutq amaliyoti bog‘liqligi, nutq faoliyati turlarining o‘zaro bog‘liqligi, og‘zaki nutqning ilgarilashi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish, ibtidoiy bosqichni jadallashtirish), (d) maxsus (grammatikani o‘rgatish, leksikani o‘rgatish, o‘qishni o‘rgatish va ingliz tili o‘rgatishda nutq yozishni qo‘llash) tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda xorijiy tillarni boshlang‘ich ta‘limda o‘qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik

### TAKLIF VA XULOSALAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yosh avlodga chet tillarini (ingliz tilini) maktablarning boshlang‘ich sinflaridan boshlab o‘rgatishning ko‘plab foydali tomonlari mavjud. Va ayni shu usul bilan ularning bilimini va ko‘nikmalarini rivojlantirishimiz mumkin. Ular boshlang‘ich sinflarda olgan bilimlari asosida yuqori sinfga o‘tishgach bimalolo qiynalmasdan ingliz tilini yanada chuqurroq o‘rganishlari hamda bu tilde og‘zaki so‘zlashish imkoniga ham ega bo‘ladilar. Shuning uchun ham ularga yoshlik chog‘laridanoq tillarni puxta o‘rganish kerakligini o‘rganish onglariga singdirib borish darkor. O‘quvchilarga uy sharoitida ham alohida vaziyatlarni yaratib, dars qiladigan xonasini ingliz tiliga moslab jihozlash kerak. Misol uchun ingliz tilini eslatib turadigan inhliz alifbosini olib berish, Buyuk Britaniya yoki dunyo xaritasini ilib qo‘yish, turli xil multimediali ilovalardan foydalanishi uchun televizor olib berish va shu kabi sharoitlarni qilib berish zarur. Har bir qilingan harakat o‘z samarasini berishi tayin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdaqi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ - 1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A.T va boshqalar ; Kids’ English pupil’s book 2-sinf -Toshkent - O‘zbekiston ; 2014
3. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu . M.: Prosveshenie , 1991
4. Xoshimov O’. Yoqubov I. Ingliz tili O‘qitish metodikasi. T., -2003
5. Vyatyutnev M.N . Obuchenie inostrannomu yaziku v nachalnoy shkole. /inostranniy yazik v shkole , 1990
6. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." *Интернаука* 28 (2018): 77-79.
7. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 59-61.

8. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." *Science and Education* 2.6 (2021): 494-498.

